

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 127 (1726), 2026-yil 25-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ANDIJON SHAHRINING “TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTAXTI” DEB E’LON QILINISHI DOIRASIDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TADBIRLAR ISHTIROKCHILARIGA

Qadrlı vatandoshlar!
Hurmatli anjuman ishtirokchilari!
Avvalo, siz, azizlarni Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, ko'hna va betakror Andijon shahrining 2026-yilda “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilinishi doirasida o’tkazilayotgan tadbirlarning ochilishi bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi marosimda ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar rahbarlari, xorijiy davlatlarning elchilari, turkiy dunyoning atqoli madaniyat, adabiyot va san’at namoyandalarini qizg’in qutlab, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY rahbariyati va Tashkilotga a’zo davlatlarga Andijon shahrini “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilganliklari uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hech shubhasiz, Andijon shahrining bunday yuksak sharafiga munosib ko’rilganini O‘zbekistonning boy tarixi, madaniy-ma’naviy merosi, yurtimizning turkiy madaniyat rivojiga qo’shgan bebaho hisssasi, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarning xalqaro miqyosdagi yana bir e’tirofi sifatida qabul qilamiz. Aziz do’stlar!

Vatanimizning sharqiy darvozasi bo’lmish Andijon asrlar davomida madaniyat, adabiyot, san’at va hunarmandlik sohalaridagi markazlardan biri bo’lib kelgan. Bu tabarruk

zaminan ulug’ sarkarda va davlat arboblari, benazir allomalar, shoir va adiblar, mahorati san’atkorlar yetishib chiqqanini butun turkiy olam doimo minnatdorlik bilan e’tirof etadi.

Bu haqda gapirganda, ushbu dilbar diyorning faxru iftixori bo’lgan Bobur Mirzoning ulkan ilmiy va adabiy merosi, harbiy san’ati, mumtoz shoirimiz Abdulhamid Cho’lponning ozodlik va erkinlik qadri yuksak pardalarda tarannum etilgan o’lmas asarlarining o’zi ko’p narsadan dalolat berishini ta’kidlash zarur. Milliy raqs san’atimizning yorqin namunasi bo’lmish “Andijon polkasi”, odamlarimizning beg’ubor qalbi va zakovatini o’zida mujassam etgan askiya san’ati nafaqat bizning, balki butun san’atsevar xalqlarning umumiy madaniy mulkiga aylangan desak, mubolag’a bo’lmaydi.

Bu kabi bebaho qadriyat va san’at durdonalarini asrab-avaylash va boyitish, ulardan yosh avlodimiz va jahon madaniy jamoatchiligini keng bahramand etish borasida TURKSOY bilan yaqin hamkorlikni yuksak qadrlaymiz. Bu borada eng sara adabiy asarlarni o’z ichiga olgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” to’plami nashr etilib, o’quvchilar qo’liga yetib borgan, mamlakatlarimizda birgalikda ko’plab ilmiy anjuman va konferensiyalar, turli madaniy tadbir va taqdimotlar o’tkazilayotgani, shu yilning aprel oyida Islom sivilizatsiyasi markazida TURKSOY ofisi ochilganini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbekistonlik san’at va madaniyat namoyandalari bugungi kunda xalqaro

sahnalarda, xususan, TURKSOY tomonidan o’tkazilayotgan nufuzli anjumanlar, festival va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Xususan, joriy yilning fevral oyida bolalar raqs va sozandalik jamoalarimiz xalqaro festivalda Gran-prini qo’lga kiritgani barchamizni mamnun qildi.

Bularning barchasi xalqlarimizning teran ildizga ega qardoshlik rishtalari bugun ham tobora mustahkamlanib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Qadrlı anjuman ishtirokchilari!
“Andijon — Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” loyihasi doirasida bir yil davomida mamlakatimiz va qardosh yurtlarda o’tkaziladigan festival va ilmiy anjumanlar, badiiy kecha va ijodiy uchrashuvlar madaniy hayotimizda chuqur iz qoldiradigan, do’slik va hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamlaydigan, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar ochadigan unutilmas voqea bo’lib qoladi deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizga ulkan zafarlar tilayman.

O‘zbekiston durdonasi, oltin vodi yavhari — so’lim va fayzli Andijon shahriga xush kelibsiz, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 24-iyun kuni bo’lib o’tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston – Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash muhim ekanini ta’kidladilar.

Amaliy hamkorlik, eng avvalo, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, ekologiya, qishloq va suv xo’jaligi sohalarida yuqori sur’at bilan rivojlanayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi.

Barcha darajadagi faol almashinuvlar alohida e’tirof qilindi. Yetakchilar ikki

mamlakat Prezidentlari Administratsiyalari o’rtasida erishilgan kelishuvlarni o’z vaqtida amalga oshirish hamda sheriklik kun tartibini yangi loyiha va tashabbuslar bilan boyitishga xizmat qilayotgan yaqin hamkorlik yo’lga qo’yilganini olqishladilar.

O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilari mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashib, bo’lajak ikki va ko’p tomonlama tadbirlar rejasini ko’rib chiqdilar.

O‘ZA



TASHABBUSLAR KELAJAKKA ISHONCHNI OSHIRADI

Prezidentimiz 23-iyun kuni joylarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda turli sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar va joriy qilingan ilg’or yechimlar bilan tanishish maqsadida Namangan viloyatida bo’ldi.

Davlatimiz rahbari hududlarga tez-tez tashrif buyuradi va ular o’sha hudud uchun muhim voqelik sifatida baholalanadi. Mamlakatimiz yetakchisining har bir amaliy safari hudud taraqqiyoti, aholi farovonligi va iqtisodiy o’sishiga yangi sur’at bag’ishlaydi. Zero, har bir tashrif

ortida aniq maqsad va ulkan g’oyalar mujassam. Yangi tashabbuslar esa kelajakka ishonchni mustahkamlaydi.

So’nggi o’n yil ichida Prezidentimiz Namangan viloyatiga bir necha bor tashrif buyurdi va har bir tashrifdan keyin namanganliklarning turmush tarzi tubdan o’zgarib bordi.

Namangan ulkan imkoniyatlarga ega bo’lishiga qaramay, o’zini o’zi to’liq ta’minlay olmas, 2016-yilgacha dotatsiya oluvchi hududlar qatorida edi.

Iqtisodiyotning asosiy harakatlanitiruvchi kuchi bo’lgan sanoat tarmog’i yetarlicha rivojlanmagan, soha juda zaif bo’lgan. Yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar deyarli mavjud emasdi. Investitsiya jalb etish eng murakkab vazifalardan biri hisoblanardi. Jalb etilayotgan mablag’lar hajmi ham kam bo’lib, buni jiddiy yutug’ sifatida baholash juda qiyin edi.

Viloyat daromadlarining asosiy qismi qishloq xo’jaligi hisobiga to’g’ri kelardi. Lekin bugungi zamonaviy va yuqori samarali

agrar tizim hali shakllanmagandi. Shu bois, aholining katta qismini tashkil etuvchi yoshlar uchun munosib ish o’rinlari yetishmasdi. Natijada mehnatga layoqatli aholining tashqi mehnat migratsiyasi kuchaygandi.

Hozir bu manzara butunlay o’zgargan. Chunki Prezidentimiz uchun eng asosiy mezon inson, uning manfaati va hayotidir. Yangi uy-joy, shaxsiy avtomobil, farzandlarga sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat va yoshlarga munosib ish o’rinlari har bir oila uchun zarur va bu davlatimiz rahbari maqsad qilgan islohotlar samaradorligining muhim ko’rsatkichidir.

Davomi 2-betda



ANDIJON SHAHRI – 2026-YILDA TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTAXTI

Andijon turkiy dunyoning qadimiy tarixga ega, o’ziga xos va go’zal shaharlaridan. Bu zamin dunyoga mashhur olim-u shoirlar, zukko va omilkor insonlar, mirishkor dehqonlar hamda usta tadbirkorlar yetishtirgan. Qolaversa, Andijon o’zining qadimiy va salobatli tarixi, betakror tabiati, o’ziga xos rivojlanish yo’li, shuningdek, xushfe’l, shirinso’z va mehmondo’sst xalqi bilan ham ajralib turadi.

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY rahbariyati va tashkilotga a’zo davlatlar qarori bilan Andijon shahri 2026-yilda “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilindi.

Davomi 2-betda

RIZQ-RO‘ZIMIZ, TO‘KINLIK VA QUT-BARAKA TIMSOLI

Boshqoq terib kun ko‘rgan yaqin o‘tmish saboqlari va bugungi g‘allachilikdagi natijalar haqida

Non azaldan dasturxonimiz ko’rki, qut-baraka va farovonlik timsoli sifatida qadrlanadi. Shu bois, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi va aholini arzon, sifatli un hamda non mahsulotlari bilan ta’minlash alohida e’tiborda.

Bugun bozorlaru savdo rastalaridagi qator tizilgan, turli nav va chiroyli yorliqlar bilan bezatilgan un mahsulotlari, issiq tafti bilan dimog’ni qitiqlovchi nonlar to’kinlikdan darak beradi. Eng muhimi, zamondoshlarimizning ko’zida ertangi kunga ishonch bor. Hech kim “ertaga un topilarmikan?”, “bug’doy qimmatlab

ketmasmikan?” degan xavotir bilan yashamaypti. Hozirgi avlod uchun bu manzara shunchaki oddiy holat, kundalik hayotning tabiiy oqimidek tuyulishi mumkin. Ammo sochiga oq tushgan, peshonasida yillar asorati muhrlangan katta avlod vakillari bugungi osoyishtalik va to’kin-sochinlikka osonlikcha erishilmaganini yaxshi biladi.

Inson tabiati shunday — boshidan kechgan og’ir kunlarni, mashaqqatlarni tez unutadi. Biroq kechagi kunning achchiq saboqlarini eslamay turib, bugungi to’kinlikning asl qadri, uning zamiridagi ulug’ mehnatni anglab yetish mushkul.

Davomi 4-betda

JAMIYATNING XOLIS ko‘zgusi



Bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarni bevosita kuzatish, ularga munosabat bildirish, o’zaro qiyoslash imkoniyatiga egamiz. Ijtimoiy-siyosiy faollik hayotimizning muhim jihatlariidan biriga aylandi. Bunday sharoitda odamlarning xolis va haqqoniy axborot, chuqur va ishonchli tahlillarga ehtiyoji oshishi tabiiy. Bunda erkin matbuot, uning tezkor va xolisligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Matbuot erkinligi so’z, shaxs, vijdon erkinligi singari muhim siyosiy huquqlardan biri. U OAVning erkin faoliyat yuritishiga hech bir to’siq bo’lmashligini, jamiyat a’zolari matbuotda fikr-mulohazalarini erkin ifoda etolishini ta’minlaydi va bundan matbuotning jamiyat hayotidagi muhim o’rni kelib chiqadi.

“Erkin matbuot haqiqatning xolis ovozi, adolatning ko’zi, jamiyatning vijdoni” degan fikrda mubolag’a yo’q. Bunday matbuot har qanday davlatning intellektual salohiyati va ichki demokratik taraqqiyotning asosiy ustuni bo’lmog’i zarur. Jamiyat o’z vaqtida e’lon qilinishi zarur axborotlarga qanchalik ochiq bo’lsa, unda tinchlik, totuvlik bo’ladi, ijtimoiy adolat yuzaga keladi.

Davomi 3-betda



TASHABBUSLAR KELAJAKKA ISHONCHNI OSHIRADI

Munosabat



Boshlanishi 1-betda

Bugun Namangan viloyati yuqori darajada sanoatlashgan va yirik ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirilishi hisobiga milliy iqtisodiyot yetakchilaridan biriga aylandi. Agrosanoat majmuasi modernizatsiya qilindi, mahsulotlarni qayta ishlash hajmi ortib bormoqda. Bu esa qo'shimcha qiymat zanjirlari shakllanishiga xizmat qilyapti.

Yoshlar masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ular axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt kabi zamonaviy yo'nalishlarda o'z o'rnini topmoqda. Aynan shu sohalarida yuqori daromadli ish o'rinlari yaratilyapti. Ularning mehnati tufayli bugun viloyat katta yutuqlarga erishmoqda.

Yuqorida aytilgan fikrlarni raqamlar ham tasdiqlaydi. Xususan, so'nggi sakkiz yilda Namangan viloyatida 40 mingga yangi korxona tashkil etildi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 40 trillion so'mga yetdi.

Ikromxon NAJMIDDINOV,
senator

Prezidentimizning usta dehqonlar, fermer va tadbirkorlar hamda jamoatchilik vakillari bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqoti nafaqat hudud rivoji, balki mamlakat taraqqiyotining muhim bosqichiga oid g'oya va vazifalarni belgilab berdi.

Aholi farovonligi, yoshlar tarbiyasi, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, qishloq xo'jaligini

O'N YIL OLDINGI NAMANGAN BILAN BUGUNGISI O'RTASIDA KATTA FARQ BOR. BU O'ZGARISHLAR XALQ MEHNATI, TASHABBUSKORLIGI VA ISLOHOTLARGA ISHONCH SAMARASIDIR. HAQIQATAN, VILOYATDA SANOAT, QISHLOQ XO'JALIGI, XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA INFRATUZILMADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VILOYATNI ENG TEZ RIVOJLANAYOTGAN HUDUDLARDAN BIRIGA AYLANTIRMOQDA.

Davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifi Namangan xalqaro aeroportida barpo etilayotgan yangi yo'lovchi terminali qurilishini ko'zdan kechirish bilan boshlandi. Shundan so'ng viloyatdagi bir qator ishlab chiqarish obyektlari va yirik loyihalar bilan tanishildi.

O'n yil oldingi Namangan bilan bugungisi o'rtasida katta farq bor. Bu o'zgarishlar xalq mehnati, tashabbuskorligi va islohotlarga ishonch samarasidir. Haqiqatan, viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi va infratuzilmada amalga oshirilayotgan ishlar viloyatni eng tez rivojlanayotgan hududlardan biriga aylantirmoqda.

modernizatsiyalash va daromadli iqtisodiyotni shakllantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Uchrashuvning eng muhim jihatlaridan biri iqtisodiyotni ilm-fan bilan uzviy bog'lash masalasi bo'ldi. Prezidentimiz Toshkentdagi ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislarini Namanganning barcha tumanlariga jalb etish tashabbusini ilgari surdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad oddiy hisobotlar emas, balki har bir hududning aniq imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Endigi vazifa aniq: mas'ullar mas'uliyatni chuqur his etishi, bor diqqatini xalq roziligiga qaratishi, bunyodkorlik g'oyasi ostida odamlarni birlashtirishi lozim.

MAQOM MILLAT SHARAFI uni asrab-avaylashimiz kerak

Namanganda bo'lib o'tgan III Xalqaro maqom anjumaniga butun dunyodan, xususan, 80 ta mamlakatdan olimlar, maqom bilimdonlari va ijrochilari, targ'ibotchilar hamda maqomni qalban yaxshi ko'radigan insonlar, mutaxassislar tashrif buyurdi. 2017-yildan buyon milliy maqom san'atimizni rivojlantirish yo'lida beqiyos ishlar qilinmoqda.

Jumladan, Maqom markazi va Maqom instituti tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari o'zining katta natijalarini beryapti. Bu borada yanada yangi bosqichga chiqishimiz haqida davlatimiz rahbari o'z nutqida aytib o'tdi.

Maqom oddiy musiqa emas. Bu millatning xotirasi, xalqning qalbi va asrlar osha yangrab kelayotgan ma'naviy ovozidir. Unda ajdodlarimiz hikmati, orzu-umidlari, dardi va quvonchi mujassam.

Shu paytgacha biz bu an'anani o'rgandik, uni yoshlar ta'limiga

joriy etdik, qalbiga singdirishga harakat qildik va qanday natijaga erishdik? Biz maqomotimizni to'laligicha shakllantiryapmiz. Endi zamonaviy texnologiyalar orqali maqomning audio va video, shuningdek, nota yozuvlarini butun jahonga olib chiqishimiz kerak. Uni jahon sahnasiga olib chiqish uchun esa, albatta, yuksak intellekt zarur. Intellektning bizga beradigan eng katta yordami maqomotni butun jahon bo'ylab targ'ib qilish imkoniyatidir.



Soyibjon BEGMATOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori

Tashrif buyurgan mehmonlar ma'ruzalarida xuddi shu tendensiyalar o'ziga xos tarzda aks etdi. Barchamiz yakdil bir fikrdamiz va albatta, O'zbekistonning dunyo bo'yicha maqom targ'iboti markaziga aylanishi oson kechadigan jarayon bo'ladi.

Bugun O'zbekistonda maqom san'ati uchun yaratilgan xalqaro maydon bebaho san'at rivoji yo'lidagi ishlarning eng e'tirofisi bo'ldi. Toshkentda alohida Dunyo maqom markazi tashkil etilishi orqali kelgusida maqom san'ati mavjud bo'lgan hamda mumtoz san'atga muhabbatli barcha xalqlar bir yerda jamlanadi. Bizda esa maqomimizning jozibasi va

qudratini o'sha markaz orqali butun dunyo sahnalariga taqdim qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Darhaqiqat, bu madaniy koshona jahon maqom san'atining yirik ilmiy-tadqiqot markaziga aylanadi. O'zbek maqom maktablaridan tashqari arab, turk, fors, tojik, hind va boshqa Sharq mumtoz musiqa yo'nalishlarining o'qitilishi bunga keng yo'l ochadi.

Maqomni sevadigan dunyo yoshlari uchun "ustoz-shogird" an'analari asosida mahorat amaliyoti dasturlari yo'lga qo'yilishi va buning uchun maxsus grantlar ajratilishi ham juda katta tashabbus. Markaz huzurida xalqaro raqamli kutubxona va laboratoriya tashkil etish esa ulkan salohiyat talab etadi. "Shashmaqom" bo'yicha hududlarimizda "Maqom yo'li" madaniy-turistik yo'nalishini yaratish shunchaki oddiy ish emas, bu katta kuch va bilimga tayanadi.

Xalqaro maqom mukofotini ta'sis etib, soha rivojiga katta hissa qo'shgan olim va san'atkorlarni har ikki yilda rag'batlantirib borishdek xayrli ishlar ham shu ma'noda juda o'rindir. Biroq bularning barchasi alohida o'rganish, izlanish va ulkan mas'uliyatni talab qiladi. Mashaqqatlarga qaramay, ayni paytda shunday zalvorli ishlarga kirishyapmiz. Zero, bu harakatlarimiz o'zligimizni qadrlash orqali millatlararo hurmat topishimizda va eng muhimi, millatimizning milliy boyligini avaylab-asrashda etamiz egalariiga ibrat bo'lishimizda muhim o'rin tutadi.

"AI-PSIXOLOG": NAMANGANNI JINOYATCHILIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRISHDA SAMARALI VOSITA

Prezidentimiz 23-iyunda Namangan viloyatiga tashrifi doirasida Namangan davlat texnika universitetining sun'iy intellekt laboratoriyasida bo'lib, amaliyotga tatbiq etilayotgan yangi startap loyihalar bilan tanishdi.



Dostonbek ABDULLAYEV,
Chortoq tumani hokimining sun'iy intellekt masalalari bo'yicha maslahatchisi

yoshlarning psixologiyasiga atrof-muhit, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi turli zararli kontentlar ta'sir o'tkazmoqda. Maktablarda esa psixolog shtati bitta bo'lib, u barcha o'quvchilarning ruhiy holatini o'rganish, tashxis qo'yish va jinoiyatchilikka moyil

o'quvchilarni muntazam ravishda kuzatib borishga qiyinaladi.

Ushbu startap loyiha maktab psixologlarining eng yaqin ko'makchisiga aylanadi. U o'quvchilarga vaziyatli o'yin shaklidagi test (SDQ, Olweus, Buss-Perry

LOYIHANING DASTLABKI SINOV JARAYONLARIDA 440 DAN ORTIQ MAKTAB O'QUVCHISI ISHTIROK ETDI. JARAYONDA TAHLILLARNING 95 FOIZ ANIQLIGI, SHUNINGDEK, TARMOQDA 60 FOIZ QOG'OZBOZLIKNI KAMAYTIRISHI VA VAQTNi TEJASHI, O'QUVCHILARNING RUHIY HOLATINI REAL VAQT REJIMIDA KUZATIB BORISH IMKONIYATINI TAQDIM ETISHI ANIQLANDI.



metodikalari asosida) va diqqat/impuls testini beradi, javoblarni sun'iy intellekt yordamida tahlil qilib, har bir o'quvchi uchun xavf darajasini (past/o'rta/yuqori) aniqlaydi. Maktab psixologi uchun alohida boshqaruv paneli orqali umumiy statistika, sinflar kesimida tahlil, yuqori xavfli o'quvchilar ro'yxati, sun'iy intellekt (Claude AI) tavsiyalari va hisobot generatsiyasi taqdim etiladi.

Ushbu loyihaning dastlabki sinov jarayonlarida 440 dan ortiq maktab o'quvchisi ishtirok etdi. Jarayonda tahlillarning 95 foiz aniqligi, shuningdek, tarmoqda 60 foiz qog'ozbeklikni kamaytirishi va vaqtni tejashi, o'quvchilarning ruhiy holatini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini taqdim etishi aniqlandi.

Davlatimiz rahbari startap loyihaga katta qiziqish bildirdi hamda Namanganni jinoiyatchilikdan xoli hududga aylantirishda qo'l kelishi, uni kelgusida respublika miqyosida keng qo'llash zarurligini bildirdi. Yoshlarning kelajagiga bevosita aloqador loyihalarni hayotga qo'llash kechiktirib bo'lmaz vazifa ekani, yuqori O'zbekiston kelajagi mamlakatimizning oltin avlodlari qo'lidaligini qayd etdi.

Prezidentimizning ushbu so'zlari menga yangilikka intilish, o'z vazifamizni siddiqildan bajarish, yangi O'zbekistonni bir tanu bir kuch bo'lib bunyod etishga ishonch va ruh bag'ishladi.

Birdamlik ruhi

Boshlanishi 1-betda

Kuni kecha Yangi Andijon shahrida ushbu yuksak e'tirofga bag'ishlangan tadbirlarning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda xalqaro tashkilotlar rahbarlari, xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi elchilari, turkiy dunyoning atqoli madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari ishtirok etdi.

Prezidentimiz xalqaro tadbirlar ishtirokchilariga tabrik yo'lladi. Tabrikni O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov o'qib eshittirdi.

"Hech shubhasiz, Andijon shahrining bunday yuksak sharafiga munosib ko'rilganini O'zbekistonning boy tarixi, madaniy-ma'naviy merosi, yurtimizning turkiy madaniyat rivojiga qo'shgan bebaho hissasi, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqaro miqyosdagi yana bir e'tirofi sifatida qabul qilamiz", deyiladi tabrikda.

Shuningdek, mamlakatimiz madaniy hayotida yana bir quvonchli voqea yuz berdi. TURKSOY tashabbusi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Andijon viloyati hokimligining qo'llab-quvvatlovi



bilan "Andijon polkasi" raqsi Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi.

Bu raqs o'tgan asrning 20-yillarida andijonlik mashhur sozanda, bastakor, O'zbekiston xalq artisti Orifjon Toshmatov

tomonidan yaratilgan bo'lib, xalq orasida keng ommalashgan hamda milliy raqs san'atimizning ajralmas qismiga aylangan.

Andijonda TURKSOY Yozuvchilar uyushmasining yig'ilishi, IV TURKSOY

xalqaro teatr festivali, V Turkiy dunyo muzeylari uchrashuvi va TURKSOY Muzeylar uyushmasining davriy yig'ilishi, shuningdek, tashkilotga a'zo davlatlar madaniyat vazirliklari mas'ullari ishtirokidagi ekspertlar yig'ilishi hamda TURKSOY Doimiy kengashining 43-yig'ilishini o'tkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarda ham Andijonning boy madaniy-tarixiy salohiyatiga bag'ishlangan qator taqdimotlarni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Eng muhimi, turkiy dunyo xalqlarini yagona platformaga birlashtiradigan bu kabi tadbirlarning hamjihatlik ruhida muntazam tashkil etilishi qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlab, o'zaro bog'liqlikda taraqqiy etishimiz uchun xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tabrigida ta'kidlanganidek, "Andijon — Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" loyihasi doirasida bir yil davomida mamlakatimiz va qardosh yurtlarda o'tkaziladigan festival



va ilmiy anjumanlar, badiiy kecha va ijodiy uchrashuvlar madaniy hayotimizda chuqur iz qoldiradigan, do'stlik va hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamlaydigan, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar

ochadigan unutilmas voqea bo'lib qolishi shubhasiz.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bir necha yil avval gektaridan 70-80 sentner paxta hosili olish orzu bo'lib ko'ringan bo'lsa, bugun bu natija real ko'rsatkichga aylandi. Hatto bunday yuqori hosildorlikka intilayotgan fermerlar soni yil sayin ortib bormoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Islahot odimlari

RIZQ-RO'ZIMIZ, TO'KINLIK VA QUT-BARAKA TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

Xotiralar tasmaidagi og'riqlar

Ko'p emas, atigi chorak asr oldingi manzaralar hali ham ko'pchilikning xotirasidan o'chmagan. Bahor tugab, yozning issiq nafasi sezila boshlagan, ammo bug'doy pishishiga hali bir necha hafta bor bo'lgan o'sha davrlarni eslasak, yurak o'rtanadi. Ro'zg'ordagi tanqislik, tirikchilik yuki odamlarni dalalarga olib chiqardi. Hali to'liq yetilmagan, suti qochmagan bug'doy boshqolarini terib, uyga olib kelgan onalarning siymosi hanuz ko'z oldimizda.

Dala yo'llaridan chang ko'tarib o'tayotgan, ustiga bug'doy ortilgan yuk mashinalari ortidan jon-jahdi bilan yugurgan bolalar va o'smirlarni ko'rmanmidik? Bir qop don, bir siqim rizq ilinjida o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, harakatlanayotgan mashina tirkamasiga yopishgan zamondoshlarimiz taqdiri bugun qalbimizni tinaydi. Afsuski, mana shunday jonsarak urinishlar oqibatida og'ir jarohat olgan, hatto shirin jonidan ayrilib, oilasini bir umrlik dog'da qoldirgan yurtdoshlarimiz ham bo'ldi. Bu voqealar qaysidir badiiy asarning to'qima syujeti emas, balki xalqimiz boshdan kechirgan, yaqin o'tmishimizning achchiq va hayotiy haqiqati edi.

— Bugungi to'kin dasturxon, fayzli xonadonlarimiz va farovon hayotimiz uchun har qancha shukrona ayt sak ham oz, — deydi Do'stlik tumanida yashovchi Abduvahob Qo'chorov. — Har yili g'alla o'rini mavsumi kelganda, bug'doy va un bilan bog'liq og'riqli xotiralarim yodimga tushadi. Rahmatli akam fermer xo'jaligi rahbari bo'lib ishladi. Har yili 30-40 gektar maydonga bug'doy ekiladi. Ammo o'sha yillari hosildorlik past bo'lganni yoki boshqa sababmi, davlat rejasini bajarish juda og'ir kechardi. Qishloqlarda sharoit og'ir, odamlarning turmushi ancha mushuk edi. Ko'pchilikning umidi va ishonchi bug'doyga bog'langandi. Bug'doy hali to'liq pishib ulgurmasidan odamlar dalalarga boshqoq terish uchun chiqqan. Avvaliga fermerlar bunga yo'l qo'ymasdi. Odamlar esa tirikchilik tashvishida yashirincha boshqoq terishga majbur bo'lardi. Men ham fermer oilasidan bo'lishimga qaramay, noilojlikdan boshqoq tergan kunlarim bo'lgan. O'sha paytda ba'zi fermerlar g'alla o'rini vaqtida nazoratchilar bilan kelishib, dalaning bir chetida ozzina bug'doy qoldirishga harakat qilardi. Lekin bu ham hammaga nasib etmasdi. Yili aniq yodimga emas, 2000-yillarning boshi edi. Xo'jaligimizdagi g'alla o'rini olindi, ammo reja bajarilmadi. Akamning ozzina bo'lsa ham bug'doy olib qolish bo'yicha qilgan harakatlari samara bermadi. Uyda esa un tugagan, bug'doy olishga ehtiyoj juda katta edi. Noilojlikdan bir sinfdoshim bilan g'alla ortilgan yuk mashinasini poylab turdik. Mashina sekin harakatlanayotganiga unda chiqib oldik. Ikki qopni bug'doy bilan to'ldirib, amallab pastga tashladik. Ammo bu vaqtga kelib mashina dala yo'li tugab, asfalt yo'lga chiqqan va

tezligini oshirgan edi. Endi undan tushishning o'zi muammoga aylandi. Avval sinfdoshim tavakkal qilib sakradi. Bir ozdan keyin men ham o'zimni harakatlanayotgan mashinadan tashladim. Afsuski, qattiq yiqilib, hushimni yo'qotibman. Keyin eshitishimcha, sinfdoshim yo'lovchilardan yordam so'rab, meni o'zimga keltirgan ekan. Qo'lim sinib, oyog'im qattiq lat yegan. Samarqandga borib davolanishimga to'g'ri keldi. Mana, qo'limdagi shu chandiq o'sha og'ir kunlarni eslatadi. Oradan yillar o'tdi. Bugun yurtimizda farovonlik, dasturxonlarimiz nonga to'la. Yoshlarimiz ehtimol bu kabi qiyinchiliklarni tasavvur qilolmas, lekin biz bug'doyning, nonning haqiqiy qadriini yaxshi bilamiz. Chunki yo'qchilikni ham, muhtojlikni ham boshdan kechirganmiz.

Darhaqiqat, bir vaqtlar odamlar boshqoq terib kun ko'rgan, bir qop bug'doy ilinjida dalama-dala yurgan davrlar ortda qoldi. Bugun mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va xalq dasturxonini to'kin qilish borasidagi keng ko'lamli ishlar samara bermoqda. Zero, bugungi to'kin dasturxon ortida xalqimizning mashaqqatli mehnati, sabr-bardoshi va tarixning turli sinovlaridan o'tgan og'ir kunlari mujassam.

Ma'muriy buyruqbozlikdan erkin bozorga

Yillar o'tib, davr o'zgardi. O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Xususan, g'alla mustaqilligiga erishish yo'lida tashlangan shiddatli qadamlar va tizimli islohotlar sohada tub burilish yasadi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-maydagi "G'allani



yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi tarixiy qarori soha hayotida butunlay yangi sahifa ochib berdi.

Mazkur hujjat uzoq yillar davomida sohani bo'g'ib kelgan ma'muriy buyruqbozlik, reja ortidan quvish va fermerni o'z mahsulotini arzon garovga sotishga majburlash tizimiga chek qo'ydi. G'allachilik tarmog'ining haqiqiy bozor munosabatlari asosida rivojlanishiga yo'l ochildi, dehqonning iqtisodiy manfaatdorligi va yerdan unumli foydalanish mas'uliyati yangi bosqichga ko'tarildi.

Uzoq yillar davomida yer bilan tillashib, uning sir-asrorini anglab kelgan tajribali dehqonlar bugun qishloq xo'jaligida yuz

tufayli ham paxtadan, ham g'alladan munosib daromad olapmiz. Eng muhimi, mehnatimiz samarasi o'zimizga qaytmog'da. Bu esa yerga mehmimizni, ishga qiziqishimizni kuchaytirdi. Fermer xo'jaligimizdagi 160 gektar yerning 100 gektariga g'alla, 60 gektariga paxta ekanmiz. Keyingi ikki yildan buyon har gektardan 100 sentnerdan ziyod g'alla hosili olapmiz. Albatta, moddiy manfaatdorlik ham shunga yarasha yuqori bo'lmoqda. Davlat xarididan qolgan g'allaning muayyan qismi ishchilarga tarqatildi. Undan ham ortganini esa bozor narxida sotish imkoniyatiga egamiz. Buning o'zi fermer uchun katta rag'bat. Hali imkoniyatlarimiz bundan ham katta. Fermerlar iqtisodiy jihatdan

“

Natijada hosildorlik ko'rsatkichi yildan yilga o'sib boryapti. O'tgan yili viloyatimizdagi 100 dan ziyod fermer har gektar yerdan 90-100 sentnerdan hosil olgan bo'lsa, joriy yilda bu tajribani yanada ommalashtirib, yuqori natijalarga erishishni rejalashtirganmiz. Xususan, 80,4 ming gektar maydondan 750 ming tonna don olishni mo'ljallaganmiz. Bu o'tgan yildagidan qariyb 50 ming tonna ko'p.

anglab yetdi. Bu ishonch va manfaatdorlik esa dehqonni izlanish, tajriba o'rganish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga undamog'da. Natijada nafaqat hosildorlik, balki yerning unumdorligi va mahsulot sifati ham ortib bormog'da.

Bu esa qishloq aholisi daromadining o'sishi, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy qudrati mustahkamlanishi va yangi investitsiya imkoniyatlari kengayishini anglatadi. Mutaxassisning ta'kidlashicha, bugungi yutuqlar zamirida ilmiy yondashuv va

Fan va innovatsiyalar uyg'unligi

G'allachilikda erishilayotgan natijalar tasodifiy emas. Bu yillar davomida to'plangan tajriba, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish va fermerlarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash borasidagi ishlar samarasidir.

— Keyingi yillarda g'allachilikda mutlaqo yangicha yondashuv shakllandi, — deydi Jizzax viloyati hokimligining qishloq xo'jaligi bo'yicha bosh mutaxassisi Sarvar Baratov. — Ilgari asosiy e'tibor reja bajarishga qaratilgan bo'lsa, bugun har gektar yerdan yuqori va sifatli hosil olish bosh maqsadga aylangan. Natijada hosildorlik ko'rsatkichi yildan yilga o'sib boryapti. O'tgan yili viloyatimizdagi 100 dan ziyod fermer har gektar yerdan 90-100 sentnerdan hosil olgan bo'lsa, joriy yilda bu tajribani yanada ommalashtirib, yuqori natijalarga erishishni rejalashtirganmiz. Xususan, 80,4 ming gektar maydondan 750 ming tonna don olishni mo'ljallaganmiz. Bu o'tgan yildagidan qariyb 50 ming tonna ko'p. Eng muhimi, mazkur hosil dehqonlarimiz uchun qo'shimcha 125 milliard so'mlik daromad manbai bo'ladi.

Xulosa

Bugun oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda eng global va dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgirdi. Sayyoramizda kechayotgan keskin iqlim o'zgarishlari, surunkali qurg'oqchilik, xalqaro maydondagi geosiyosiy ziddiyatlar va global logistika inqirozi tufayli ko'plab davlatlarda don va un mahsulotlarining jiddiy taqchilligi kuzatilmoqda. Dunyo ochlik va tanqislik xavfi qarshisida dovdirab qolgan shunday murakkab sharoitda har bir mamlakatning o'z aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan mustaqil ta'minlay olishi strategik va milliy xavfsizlik darajasidagi masaladir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, g'alla mustaqilligi biz uchun shunchaki iqtisodiy ko'rsatkich yoki raqamlar emas, balki yurtimizning ijtimoiy va siyosiy barqarorligini kafolatlovchi ulug'vor omil. O'tmishning achchiq saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqargan holda, bugungi tinch, osoyishta va to'kin kunlarning qadriga yetish, mashaqqatli mehnati bilan rizq-ro'zimizni yaratayotgan dehqonlarimizni qadrlash har birimizning insoniy burchimiz. Non bor joyda osoyishtalik barqaror bo'ladi, xonadonlarda baraka zanjiri uzilmaydi, odamlar qalbidagi ertangi kunga ulug' ishonch yashaydi.

Farhod NE'MATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

FERMER DAROMADI – FAROVONLIK KAFOLATI

Xalqimiz azaldan yerni muqaddas ne'mat, mehnatni esa barakaning asosi deb bilmagan. “Yerga mehr bersang, yer seni boqadi”, “Yer to'ysa — el to'yadi” kabi hikmatli naqlar bejiz aytilmagan. Chunki yer nafaqat rizq-ro'z manbai, balki mamlakat iqtisodiyoti, xalq farovonligi va kelajak barqarorligining mustahkam poydevoridir.

Bugun yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasidagi qadamroviy islohotlar ana shu qadriyatlarining hayotiy ifodasiga aylanmog'da. Ayniqsa, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda sohada zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish borasidagi ishlar amaliy natijalarini bermoqda.

Fermer daromadining ortishi faqat bir oilaning emas, balki butun jamiyatning farovonligi demakdir. Qishloqda daromad ko'paysa, bozorlar to'kis bo'ladi, ish o'rnlari yaratiladi, aholining turmush darajasi yuksaladi. Shu bois, agrar sohadagi har bir islohot inson qadriini ulug'lashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligidagi eng katta o'zgarishlardan biri fermerlarning fikrlash tarzi va mehnatga munosabatida namoyon bo'lmoqda. Ilgari asosiy e'tibor reja bajarishga qaratilgan bo'lsa, bugun samaradorlik, daromad va iqtisodiy manfaat birinchi o'ranga chiqdi.

Eng muhimi, fermerning yerga egalik hissi kuchaydi. U mehnat qilsa, foydasi o'z

oilasi va kelajagiga xizmat qilishini yaxshi anglayapti. Shu bois, fermerlar innovatsion agrotexnologiyalarga jiddiy kirishmog'da.

Bir necha yil avval gektaridan 70-80 sentner paxta hosili olish orzu bo'lib ko'ringan bo'lsa, bugun bu natija real ko'rsatkichga aylandi. Hatto bunday yuqori hosildorlikka intilayotgan fermerlar soni yil sayin ortib bormog'da.

Tahillarga ko'ra, 2025-yilda yuqori hosil oluvchi fermerlar soni 3 mingdan ziyod bo'lgan, joriy yilda esa 3,5 barobar ko'payib, 10 mingdan ortishi kutilmog'da. Bu esa mamlakatimizdagi fermerlarning qariyb 40 foizini tashkil etadi. Mazkur raqamlar ortida oddiy statistika emas, balki qishloq xo'jaligidagi yangi tafakkur, ilmsa suyangan yondashuv va mehnat madaniyatining yuksalishi mujassam.

G'allachilik sohasida sezilarli o'sish kuzatilmog'da. Bugun gektaridan 70-100 sentnerdan hosil olayotgan fermerlar soni 10 mingdan oshdi. Aksariyat fermerlar yuqori hosilni endi tasodif emas, balki ilmiy yondashuv, to'g'ri agrotexnika va intizomli mehnat samarasi sifatida qabul qilmog'da.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI
SKANER QILING!**



Bu natijalarga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q. Bugun qishloq xo'jaligi sohasiga keng ko'lamli yordam va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmog'da. Ayni paytda sohada 50 turdan ortiq subsidiya

va imtiyoz amal qilmog'da. Mineral o'g'it, yoqilg'i, urug'chilik, texnika, suv tejovchi texnologiyalar hamda boshqa yo'nalishlarda ajratilayotgan mablag'lar fermerlarga katta madad bo'lyapti.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligidagi ayrim muammoli masalalar, ayniqsa, yoqilg'i narxining birjada ko'tarilgan qismi kompensatsiya qilinishi fermerlarimizning imkoniyati va mablag'lar tejalisiga olib kelmog'da.

Ilgari moliyaviy ko'mak cheklangan bo'lib, muayyan tizimlar orqali amalga oshirilgan, foyda ko'ruvchi fermerlar esa sanoqli bo'lardi. Bugun esa har gektar yer uchun 15-20 million so'mgacha subsidiya ajratilayotgani sohadagi e'tiborning yaqqol namunasidir.

Mahsulotni erkin bozor sharoitida sotish imkoniyati yaratilgani fermerlarning iqtisodiy mustaqilligini yanada oshirmog'da. Fermerlarning manfaatdorligi oshib, ularni yangi texnika va texnologiyalar joriy etishga, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishga rag'batlantirmog'da.

Bu yil mamlakatimizda 10 million tonnadon ortiq g'alla yetishtirish, bunda har gektaridan 100 sentner va undan ortiq hosil olish mo'ljallangani fermerlarimiz shijoati va g'ayratidan darak beradi. Joriy yilda mahsulotni o'z mablag'i yoki tijorat kreditlari hisobidan yetishtirgan g'allakolarga xarajatlarining 10 foizini qaytarib berish bo'yicha imtiyozlar joriy qilindi. Paxta yetishtiruvchilar uchun ham xuddi shunday yengilliklar belgilandi.

Paxtachilikda Shinjon usuli, g'allachilikda innovatsion agrotexnologiyalar, bog' va tokzorlarda intensiv usullar, sabzavotchilikda sifati urug' va zamonaviy ekish texnologiyalari keng joriy etilmog'da.

Bu esa har bir qarich yerdan yuqori iqtisodiy samara olish imkonini bermoqda. Ayni paytda sohada agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida

zamonaviy agrotexnologiyalar mujassam. Xususan, o'tgan yillarda sinovdan o'tgan va yuqori samara bergan tajribalar bugun keng maydonlarga tatbiq etilmog'da. Viloyat g'alla maydonlarida hosildorligi yuqori, mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan “Vassa”, “Vexa”, “Grud”, “Aleksseyevich” kabi navlarning keng joriy etilayotgani ham yuqori natijalar omili bo'lmoqda. Shu bilan birga, mineral o'g'itlardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga alohida e'tibor qaratilmog'da.

G'alla o'rini-yig'im ishlarini qisqa muddatda va nest-nobudsiz tashkil etish maqsadida sohaga qo'shimcha 100 ta zamonaviy kombayn jalb qilingani hosilni o'z vaqtida yig'ib olish, don sifati va miqdorini saqlab qolish imkonini beradi. Sohada yana bir muhim yangilik sifatida don o'rish jarayonlarini raqamli nazorat qilish tizimi joriy etilmog'da. Xususan, don o'rish kombaynlari GPS texnologiyalari va kuzatuv kameralari orqali onlayn monitoring qilinmog'da.

— Bu tizim har bir kombayn harakatini real vaqtda kuzatish imkonini beradi, — deydi Sarvar Baratov. — Ish vaqti va samaradorlik aniq hisoblanadi, yoqilg'i sarfi nazorat qilindi, o'rilgan maydon va yig'ib olingan hosil hajmi to'liq monitoring qilindi. Mazkur raqamli tizim inson omili ta'sirini kamaytirish, jarayonlardagi xato va noaniqliklarni qisqartirish hamda umumiy ish unumdorligini oshirishda qo'l keladi. Eng muhimi, bu tizim sohada shaffoflikni ta'minlaydi va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada yuqori hosil bilan birga iqtisodiy samaradorlik ham sezilarli oshadi. Bugungi natijalar bilan cheklanib qolish niyatimiz yo'q. Oldimdiza turgan asosiy vazifa — har bir gektar yerning imkoniyatini to'liq ishga solish, ilm va innovatsiyalarga tayangan holda hosildorlikni yanada oshirish. Chunki g'allachilik nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki minglab fermer va dehqon oilalarining farovon hayoti uchun ham mustahkam iqtisodiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Bugun Jizzax dalalarida yetishtirilayotgan har bir boshqoq ortida ilm, zamonaviy texnologiya, dehqon mehnati va islohotlar samarasi mujassam. Eng muhimi, bu yutuqlar xalq dasturxonining to'kinligi va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa bo'lib qo'shilmog'da. Hosildorlik faqat raqamlarda emas, balki dehqonning kayfiyati, ertangi kunga ishonchi va mehnatga munosabatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zero, yer egasi o'z mehnatining haqiqiy samarasini ko'rgan joydagina baraka va taraqqiyot qaror topadi.

Xulosa

Bugun oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda eng global va dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgirdi. Sayyoramizda kechayotgan keskin iqlim o'zgarishlari, surunkali qurg'oqchilik, xalqaro maydondagi geosiyosiy ziddiyatlar va global logistika inqirozi tufayli ko'plab davlatlarda don va un mahsulotlarining jiddiy taqchilligi kuzatilmoqda. Dunyo ochlik va tanqislik xavfi qarshisida dovdirab qolgan shunday murakkab sharoitda har bir mamlakatning o'z aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan mustaqil ta'minlay olishi strategik va milliy xavfsizlik darajasidagi masaladir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, g'alla mustaqilligi biz uchun shunchaki iqtisodiy ko'rsatkich yoki raqamlar emas, balki yurtimizning ijtimoiy va siyosiy barqarorligini kafolatlovchi ulug'vor omil. O'tmishning achchiq saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqargan holda, bugungi tinch, osoyishta va to'kin kunlarning qadriga yetish, mashaqqatli mehnati bilan rizq-ro'zimizni yaratayotgan dehqonlarimizni qadrlash har birimizning insoniy burchimiz. Non bor joyda osoyishtalik barqaror bo'ladi, xonadonlarda baraka zanjiri uzilmaydi, odamlar qalbidagi ertangi kunga ulug' ishonch yashaydi.

Farhod NE'MATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

MOZIY VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT O‘RTASIDA MUSTAHKAM KO‘PRIK



Dunyo xazinalarini to‘ldirib turgan ming-minglab yodgorliklar har bir xalqning o‘tmish madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Ularda millatning boy ma‘naviy va madaniy merosi, qadim urf-odati, e‘tiqodi bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar jamlangan. Jamiyatning tarixiy xotirasini tiklash, sivilizatsiyalar taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini anglash va inson tajribasining uzviyligini ochib berishda arxeologik yodgorliklar va osori atiqalarning o‘rni alohida.



Suhbat

Moddiy madaniyat namunalari orqali xalqlarning shakllanish jarayoni, madaniy aloqalari, iqtisodiy munosabatlari va ma‘naviy qarashlari haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin. Bu esa milliy o‘zlikni anglash jarayonini aniq ilmiy dalillarga tayangan holda mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zFA Antropologiya instituti direktori, tarix fanlari doktori Farhod MAQSUDOV bilan suhbatimiz shu haqda ko‘ladi.

— Arxeologiyani faqat tarixni o‘rganish vositasi sifatida tushunish to‘g‘ri emas. U, avvalo, o‘tmishni ilmiy asosda tiklashga xizmat qiladigan fundamental fan. Arxeologik manbalar esa yozma manbalar yetishmaydigan yoki umuman mavjud bo‘lmagan davrlar haqida ishonchli ma‘lumot beruvchi asosiy dalillardir, — deydi F.Maqsudov. — Shu bilan birga, arxeologiya millat o‘zligini anglash va namoyon etishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Chunki arxeologik topilmalar orqali xalqimizning qadimiy ildizlari, madaniy merosi, davlatchilik an‘analari va taraqqiyot yo‘li yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa jamiyatda tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq bu o‘rinda muhim jihatni ta’kidlash joiz: arxeologiya ilm sifatida har qanday g‘oyaviy yoki siyosiy talqinlardan xoli bo‘lishi, faqat dalil va ilmiy tahlilga asoslanishi kerak. Shundagina u haqiqiy tarixni tiklash va millatning o‘zligini sog‘lom, ilmiy asosda namoyon etishida qo‘l keladi.

— Antropologiya institutida bugun e‘tiborga molik qanday ishlar qilinmoqda?

— Institutimiz 2019-yili Milliy arxeologiya markazi sifatida tashkil etilgan. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 27-dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, u Antropologiya instituti deb nomlandi. Ayni paytda institutimiz olimlari 20 ga yaqin arxeologik yodgorlikda tadqiqotlar o‘tkazmoqda. Insoniyatning o‘tmishini tiklash, tarixiy haqiqatni aniqlash va madaniy merosni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodga bus-butun yetkazishda ushbu tadqiqotlarning o‘rni alohida. Qazuv ishlarining keng qamrovda bajarilishi va madaniy merosni saqlashga qaratilgan sa’y-harakatlar tarix va zamonaviy taraqqiyot o‘rtasida mustahkam ko‘priklarni o‘rnatishga xizmat qilmoqda.

Arxeologiya bugun ilm-fan va davlat siyosati o‘rtasida muhim strategik bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan u o‘tmishni ilmiy asosda o‘rganadigan fundamental fan bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatning madaniy merosni saqlash, milliy o‘zlikni mustahkamlash va turizmni rivojlantirish siyosatida amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat siyosatida arxeologiyaga qaratilayotgan e‘tibor, eng avvalo, huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlashda namoyon bo‘layotir. Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va davlat muhofazasiga olish, noqonuniy qazish ishlarining oldini olish kabi choralar orqali madaniy merosni saqlash tizimi shakllantirilyapti. Bu esa arxeologiyani faqat

akademik soha emas, balki milliy xavfsizlik

va madaniy suverenitet masalasi darajasiga ko‘tarmoqda. Masalan, Axsikentda arxeologik park tashkil etilgan. Bu ishlar nafaqat ilm-fan, balki turizm va madaniy siyosat uchun ham muhim natija bermoqda. Arxeologiya faqat



o‘tmishni o‘rganish emas, balki kelajakni shakllantirishda ham faol ishtirok etadigan sohaga aylangan.

— Sohada qanday zamonaviy texnologiyalar qo‘llanyapti? Ular arxeologiya rivojiga nechog‘liq hissa qo‘shyapti?

— Bugun arxeologiyada GIS, dronlar, 3D modellash, radiokarbon tahlil va geofizik usullar keng qo‘llanyapti. Jumladan, Milliy arxeologiya markazi Antropologiya instituti deb qayta nomlangandan so‘ng ilmiy bo‘limlar tubdan isloh qilindi va qayta nomlandi. Xususan, endi institutda arxeologik antropologiya, geantropologiya, tarixiy antropologiya va ijtimoiy-madaniy antropologiya bo‘limlari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Antropologiya instituti tarkibida yangi — arxeologik geofizika bo‘limi tashkil etildi va tarkibi geofizik mutaxassislar bilan to‘ldirildi. Ushbu bo‘lim zamonaviy geofizik texnologiyalar yordamida arxeologik yodgorliklarning yer osti madaniy qatlamlari va qurilma shakllari, chuqurlik va holatini aniqlab, an‘anaviy qazish ishlari samaradorligini oshirish hamda noto‘g‘ri qazish ortidan keladigan xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy tadqiqotlarni aniq va keng qamrovda amalga oshirishda ushbu usullar alohida ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar arxeologiya mazmunini o‘zgartirmayapti, balki uni yanada aniq va kompleks fanga aylantirmoqda.

— Institutning xalqaro loyihalaridagi ishtirokiga ham to‘xtalsangiz.

— Xalqaro loyihalarida ishtirok etish arxeologiya sohasi uchun juda katta ilmiy, metodologik va amaliy imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, bu milliy arxeologiyani jahon ilmiy makoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Ya‘ni mahalliy tadqiqotlar faqat ichki doirada emas, balki xalqaro ilmiy standartlar, zamonaviy

yondashuvlar va yangi texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik orqali zamonaviy laboratoriya usullari, GIS texnologiyalari, 3D modellash, masofadan zondlash kabi ilg‘or metodlar amaliyotga tezroq joriy etiladi. Bu esa arxeologik tadqiqotlar aniqligi va ilmiy qiymatini oshiradi.

Uchinchidan, bunday loyihalar kadrlar tayyorlashda ham muhim. Yosh tadqiqotchilar va mutaxassislar xalqaro ekspeditsiyalarda ishtirok etib, tajriba oltiradi, ilmiy maktablar o‘rtasida bilim almashuvini kuchayadi.

To‘rtinchidan, xalqaro loyihalar arxeologiya natijalarining global darajada tan olinishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning ilmiy nufuzi va madaniy merosiga qiziqishni oshiradi. Masalan, AQSH universitetlari bilan hamkorlikda To‘g‘onbulog‘ yodgorligida o‘tkazilgan tadqiqotlar 2024-2025-yillarda dunyodagi eng yetakchi arxeologik loyihalar qatoriga kiritildi.

— So‘nggi yillarda qanday muhim kashfiyotlar qilindi?

— Eng muhim kashfiyotlar sirasiga To‘g‘onbulog‘ va Toshbulog‘ yodgorliklaridagi tadqiqotlarni kiritish mumkin. Bu yerda olingan ma‘lumotlar tog‘li hududlarda ham qadimda rivojlangan jamoalar va shaharlashuv jarayoni mavjud bo‘lganini ko‘rsatdi.

Shuningdek, Axsikent va Kofirqal‘adagi tadqiqotlar shahar madaniyati va boshqaruv tizimlari haqida yangi ma‘lumotlar bermoqda.

Bu natijalar Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha ilmiy qarashlarni kengaytirmoqda. Zamonaviy fanning rivojlanish samaradorligi va uning to‘g‘ri yo‘nalishda ilg‘orlab borayotgani bugun maxsus ilmiy yo‘nalish — ilmmetriya orqali baholanyapti. Ilmmetriya fanni miqdoriy usullar va ilmiy axborotlarni statistik qayta ishlash orqali o‘rganadigan yo‘nalish bo‘lib,

ilmiy tadqiqotlarning mahsuldorligi, ta’siri va rivojlanishini nashrlar soni, iqtiboslar darajasi hamda ilmiy ta’sir ko‘rsatkichlari orqali tahlil qiladi. Bunda Scopus va Web of Science kabi xalqaro indekslangan bazalarda e‘lon qilingan maqolalar va ulardan olingan iqtiboslar ko‘rsatkichi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil yakuniga ko‘ra, Antropologiya instituti olimlari 17 ta ilmiy maqola chop ettirib, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi yetakchi ilmiy tashkilotlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. 2030-yilga qadar har bir ilmiy xodimning yiliga kamida bir marta Scopus yoki Web of Science bazalarida indekslangan nufuzli jurnallarda maqola chop ettirishi bo‘yicha aniq strategiya ishlab chiqilgan. Qator tadqiqotlar zamonaviy ilmining rivojlanish mezonlariga ham mos ravishda ilgariib borayotganini ta’kidlash mumkin.

— Arxeologik yodgorliklarni saqlashda qanday muammolar uchramoqda?

— O‘zbekistonda arxeologik yodgorliklarni saqlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, amaliyotda qator obyektlar va tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, antropogen ta’sir, ya‘ni inson omili bilan bog‘liq buzilishlardir. Qishloq

To‘rtinchidan, tabiiy omillar — iqlim o‘zgarishi, yer eroziyasi, shamol va namlik ta’siri ham ko‘plab yodgorliklar uchun xavf tug‘dirmoqda. Ayniqsa, ochiq saqlanayotgan inshootlar vaqt o‘tishi bilan tabiiy yemirilishga uchramoqda.

Beshinchidan, kadrlar va jamoatchilik ishtirokining yetarli darajada emasligi ham ayrim hollarda seziladi. Arxeologik meros faqat mutaxassislar emas, balki mahalliy aholi, ta’lim tizimi va keng jamoatchilik ishtirokida saqlangandagina qadrlil bo‘ladi.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, yodgorliklarni davlat muhofazasiga olish, raqamlashtirish, GIS tizimlarini joriy etish va muzeylashtirish ishlari kengayayotir.

— Yosh arxeologlar uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

— Yoshlar arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etib, amaliyot o‘tayapti. Shuningdek, xalqaro loyihalar, grantlar va stajirovkalar orqali zamonaviy metodlarni o‘zlashtirish imkoniga ega. Masalan, Germaniya, AQSH, Italiya va boshqa davlatlar universitetlari bilan hamkorlikdagi arxeologik dasturlar yosh mutaxassislarga zamonaviy metodlar — GIS,



xo‘jaligi maydonining kengayishi, qurilish ishlari va infratuzilma loyihalari ba’zi hollarda arxeologik qatlamlarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotir.

Ikkinchidan, noqonuniy qazishmalar va “qora arxeologiya” hanuzgacha jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa faqat moddiy yo‘qotish emas, balki tarixiy ma‘lumotning yo‘qolishi demakdir.

Uchinchidan, moliyaviy va texnik resurslar cheklangani ham dolzarb masala. Arxeologik tadqiqotlar katta mablag‘, zamonaviy laboratoriya uskunalari va malakali kadrlarni talab qiladi.

3D modellash, radiokarbon tahlil va raqamli arxeologiya bo‘yicha tajriba oltirish imkonini bermoqda. Raqamli arxeologiya va zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi natijasida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yoshlar uchun nafaqat dala ishlarida, balki laboratoriya tahlillari, raqamli modellash va ilmiy ma‘lumotlarni qayta ishlash sohasida ham iqtidorini namoyish etish imkonini bermoqda. Yosh tadqiqotchilar Scopus va Web of Science kabi bazalarda indekslangan jurnallarda maqolalar chop ettirib, ilmiy faoliyatini global darajaga olib chiqish imkoniga ega.

— Institut oldida turgan rejaralar xususida ham to‘xtalsangiz.

— Kelgusidagi rejaralarimiz, avvalo, arxeologiyani an‘anaviy qazishma fani doirasidan chiqarib, kompleks, fanlararo va yuqori texnologik tadqiqotlar tizimiga aylantirishga qaratilgan. Bu yo‘nalishlar 2035-yilgacha bo‘lgan strategik dastur doirasida belgilangan bo‘lib, fundamental va amaliy bloklardan iborat.

Fundamental yo‘nalishlarda asosiy e’tibor jamiyat va tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Jumladan, geantropologik, arxeobotanik, arxeozoologik va bioarxeologik tadqiqotlar asosida insonning ekologik moslashuvi, tabiiy resurslardan foydalanish dinamikasi hamda madaniy landshaftlarning shakllanish qonuniyatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayoni, shahar madaniyati rivojlanishi, ijtimoiy tabaqalanish va madaniy transformatsiyalar dinamikasi ham kompleks tahlil qilinadi. Arxeogeofizik usullar va raqamli modellash orqali qadimiy shaharlarning va me’moriy inshootlarning tarixi topografiyasi ham qayta tiklanadi. Xususan, joriy yilda University of Warsaw bilan hamkorlikda yangi arxeologik laboratoriya ochiladi. Bu orqali tadqiqotlarni xalqaro darajaga olib chiqish maqsad qilingan.

Kelgusi rejaralarimiz arxeologiyani global ilmfan tizimiga to‘liq integratsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Bu esa nafaqat ilmiy natijalarni kuchaytirish, balki O‘zbekiston arxeologiya maktabini jahon darajasidagi yetakchi markazlar qatoriga olib chiqishga xizmat qiladi.

— Davlatimiz rahbarining shu yil 26-maydagi “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonida Antropologiya instituti olimlari oldiga qanday vazifalar qo‘yilgan?

— Farmonda ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlarini mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlari bilan bog‘lash belgilangan. Bu esa antropologik tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Endi doktorantlar mavzularini shakllantirishda ularning mamlakat uchun amaliy ahamiyati, ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishi va aniq natija ko‘rsatishiga katta e’tibor qaratiladi.

Natijada qator yangilanishlar ko‘zda tutilmoqda. Avvalo, yosh tadqiqotchilarni tayyorlash tizimi xalqaro talablarga moslashtirildi. Doktorantlarning ilmiy rahbarlari bilan ishlash mexanizmi takomillashtirilib, ularning xalqaro ilmiy maktablari bilan hamkorligi kengayadi. Ilmiy natijalarni nufuzli xalqaro jurnallarda chop ettirish, zamonaviy tadqiqot usullarini o‘zlashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida ahamiyat beriladi.

Farmonning muhim jihatlaridan biri ilmfan va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishdir. Xususan, amaliy doktorantura dasturlarining joriy etilishi ilmiy tadqiqotlarning real ehtiyojlarga bilan uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Antropologiya sohasida bu demografiya tahlillar, migratsiya jarayonlari, etnomadaniy merosni o‘rganish, jamoalarning ijtimoiy rivojlanishi va inson omili bilan bog‘liq davlat dasturlariga ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, ilmiy kengashlar faoliyatini modernizatsiya qilish va dissertatsiyalar sifatiga qo‘yilayotgan talablarning oshirilishi sohada raqobat muhitini kuchaytiradi. Bu esa ilmiy darajalarning nufuzini oshirib, haqiqatan ham yangi bilim yaratadigan tadqiqotchilarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugun antropologiya sohasida arxeologiya, tarix, genetika, geoaxborot tizimlari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektli birlashtirgan ko‘p tarmoqli tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi siyosat ana shunday integratsiyalashgan yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, mazkur farmonni O‘zbekiston ilmfani rivojida muhim burilish nuqtasi deb baholash mumkin. Uning amaliy natijalari yaqin yillarda ilmiy kadrlar sifati oshishi, xalqaro maydonda raqobatbardosh tadqiqotlar soni ko‘payishi va ilm-fanning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni yanada mustahkamlanishida namoyon bo‘ladi. Antropologiya instituti esa ushbu jarayonlarning faol ishtirokchilaridan biriga aylanishi shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

To‘ng‘ich farzandi 7 yoshga to‘lgan ota-onalar uchun hayajonli kunlar keldi. 20-iyundan mamlakatimizda 1-sinfga qabul jarayoni boshlandi. Joriy o‘quv yilida qariyb 800 ming o‘g‘il-qiz maktabga ilk bor qadam qo‘yadi. Eng ko‘p o‘quvchi esa Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Andijon viloyatlaridagi umumta’lim maktablariga qabul qilinadi.

1-sinfga elektron qabul jarayoni o‘rgan o‘quv yilida 64 ta tuman va shaharda amalga oshirilgan bo‘lsa, bu yil 135 ta tuman va shaharlarda ushbu tizim orqali qabul tashkil etilmoqda. Bunday qabul usuli ortiqcha ovoragarchiliklarga to‘liq barham berayotgani bois kelgusi yillarda mazkur qulaylikni respublikamizning barcha tuman va shaharlarida joriy etish ko‘zda tutilmoqda.

Elektron arizalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining my.maktab.uz elektron platformasi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — my.gov.uz orqali yuboriladi. Bunda telefon raqami orqali ro‘yxatdan o‘tiladi. Vazirlik mas’uli Nodir Hayitovning ta’kidlashicha, bu yilgi qabul tartibida ota-onalar uchun yana bir muhim qulaylik yaratildi. Elektron xizmatlar portali (my.maktab.uz) ning interfeysi to‘liq yangilanib, zamonaviy va tushunarli ko‘rinishga keltirildi.

Bu yildan boshlab OneID tizimi orqali ham

ILM SARI ILK QADAM

MAMLAKATIMIZDA 1-SINFGA QABUL BOSHLANDI



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ro‘yxatdan o‘tish hamda onlayn ariza yuborish mumkin. Ushbu imkoniyat ota-onalar uchun telefon raqamini tizimda yangilash bilan bog‘liq

noqulayliklarga chek qo‘yadi. Bundan tashqari, ko‘pchilik ota-onalar o‘zlariga biriktirilgan maktabni bilmaydi. Endi ular my.maktab.

uz platformasiga yashash manzilini kiritish orqali farzandlari 1-sinfga qabul qilinadigan maktab (mikrohudud bo‘yicha) va u haqdagi ma‘lumotlarni osongina bilib olishi mumkin.

Elektron ariza yuborayotgan shaxs yashash manzili va farzandi haqidagi ma‘lumotlarni kiritib, so‘rovnomani to‘ldiradi. Tizim avtomatik tarzda mikrohududga biriktirilgan maktabni belgilaydi. Arizachidan faqat ta’lim tilini tanlash talab etiladi. Kiritilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi tasdiqlangach, “Arizani yuborish” tugmasi bosiladi. Yuborilgan ariza 3 ish kuni ichida o‘rganiladi. Shundan so‘ng arizachi

elektron navbat orqali o‘ziga qulay vaqtni tanlab, maktabga borishi mumkin. Qabul qilinganlik holati bo‘yicha 1 ish kuni ichida telefonga SMS xabar keldi.

Birinch bosqich 20-iyundan 31-iyulga qadar davom etib, bu davrda maktablarga mahalliy hokimlik qarori bilan biriktirilgan mikrohudud bo‘yicha 1-sinfga qabul jarayoni amalga oshiriladi. 1-31-avgust kunlari esa ikkinchi bosqich, ya‘ni mikrohududdan tashqari bo‘sh o‘rinlar bo‘yicha qo‘shimcha qabul jarayoni amalga oshiriladi. Qo‘shimcha kvotalar uchun qabul umumta’lim maktablarining o‘quvchi o‘rni, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlangani, sinf xonalarining yetarli ekanini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Ilm sari ilk qadam maktab ostonasidan, kelajakka umid maktab partasidan boshlanar ekan, 1-sinfga qabul jarayoni uzluksiz ta’limning muhim bosqichidir. Bu borada jarayonga mas’ullar ham, ota-onalar ham loqaydlik qilishi, e’tiborsiz bo‘lishi mumkin emas. O‘ylamaymizki, qabul jarayonlari yangi qulayliklar bilan ko‘ngildagidek kechadi. Farzandiga barcha masalada qulaylikni ravo ko‘radigan ota-onalar maktab tanlash borasida ham to‘g‘ri tanlov qiladi.

Munojat MO‘MIANOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

